

## YUKSALISH XALQ HARAKATI

Qodirova Mamlakat, Mo'minovna

Qarshi davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrası  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada "Yuksalish" umummilliy harakatining qachon tashkil topgani, bu harakatdan ko`zlangan maqsad, vazifalari haqida ma'lumotlar, izohlar berib o'tiladi. Barcha davlat organlari bu tashkilot bilan hamkorlikda ishlaydi. Bu tashkilot fuqarolik jamiyatini barqarorlashtirishda o`ziga xos o`ringa ega.

**Kalit so`zlar:** tashabbuskorlik, xalq birdamligi, biznes, ochiq muloqot, fuqaro, nodavlat notijorat tashkilot, davlat dasturi, umummilliy harakat

Bugun Yangi O'zbekiston har qanday jabhada keng ko`lamli ishlar olib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, siyosiy, ilmiy, san`at, tadbirkorlik, xullas, qaysi sohani olmang, barchasida o`ziga xos rivojlanish, yuksalish kuzatilmoqda. Tashabbuskorlik, hamjihatlik, mehnat, o`zaro bir-birini qo`llab-quvvatlash, qadrlash, insoniylik kabi fazilatlar ulug`langan xalq bugun o`z taraqqiyotining cho`qqisi tomon intilmoqda. Bunday yuksak g`oyalarni davlatimizda tashkil etiladigan jamoat tashkilotlari, xalq harakatlari, xayriya jamg`armalari, tadbirlarda o`z aksini topmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mehnatlari, xizmatlari, e'tiborlari alohida o'rinda turadi. Shunday tashkilotlardan biri sifatida Prezidentimizning 2019-yil 17-yanvardagi "2017-2021 -yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to`g`risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda "Yuksalish" umummilliy harakati tuzildi. Bu harakat nodavlat notijorat tashkilot sifatida e'tirof etildi. Bu umummilliy harakat hisoblanib, xalqni hamjihatlikka chorlash, vatan kelajagiga befarq bo`lmagan barcha fuqarolarni qo`llab-quvvatlash, xorijda istiqomat qilayotgan o'zbeklar uchun keng aloqalar o`rnatish, biznes va tadbirkorlik uchun keng ko`lamli ishlarni amalga oshirish kabi vazifalarni o`z oldiga qo'ygan.

Buni Muhtaram yurtboshimiz quyidagicha izohlaydi: "Eng asosiy maqsadimiz - islohotlardan barchani birdek xabardor qilish. Chekkaroq hududlardagi aholiga yetkazish, qiziqish uyg`otish va harakatga keltirish. Shu bilan birga, ularning taklifini, muammolarini eshitadigan va muhokama qiladigan maydonni yaratib berish va shu orqali davlatga ishonchini mustahkamlash". Bu fikrlar tub-tubida inson qadri, uning qilgan mehnat-u xizmatlari bekor ketmasligi g`oyasi yotadi.

“Yuksalish “ umummiliy tashkiloti xalq va biznes hamjamiyati bilan ochiq tarzda muloqot qilishni ham o`z oldiga qo`ygan maqsadlaridan biri sifatida e`tirof etadi. Fuqarolarning o`z yashash tarzlarining rivoji uchun qilayotgan,tuzayotgan biznes rejalarini qo`llab-quvvatlash,ular bilan o`zaro suhbatlar tashkil etib ,ularni tinglash, moddiy yordam berish , shu orqali vatan kelajagi ,istiqbolining yuksalishini ta`minlash nazarda tutiladi.Bu tashkilot umummiliy tashkilotligi sababli o`zbek aholisining har bir qatlami uchun jon kuydirib xizmat qilib kelmoqda.Fuqarolik jamiyati , davlat institutlari bilan hamkorlikda Davlat dasturlarida rejalashtirilayotgan barcha islohotlarda bu tashkilot o`z jonbozligini ko`rsatmoqda.O`z tahlillari bilan takliflarini kiritishmoqda, yangidan yangi tashabbuslar yaratishmoqda, xorijda yashab kelayotgan vatandoshlar bilan o`zaro aloqa o`rnatib ,ular bilan bog`lanib kelishmoqda.”Yuksalish “ umummiliy tashkiloti davlatning deyari barcha boshqa tashkilotlari, davlat vazirliklari bilan hamkorlikda ishlaydi,bu tashkilotning markazi Toshkent shahrida joylashgan bo`lib, bu hamkorlik esa barcha viloyat-u tumanlarda tashkil etilgan.Xalq bilan birgalikda ishlayotganligining yorqin isbotidir. Bunga misol qilib ,Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va “Yuksalish “ umummiliy tashkiloti bir qator yo`nalishlarda o`zaro yaqin hamkorligini yo`lga qo`ydi.Hamkorlikdan ko`zlangan maqsad ishsiz va band bo`lmagan aholini ,ayniqsa,ehtiyojmand oilalarni , yoshlarni kasb-hunarga o`rgatish , ularni o`qitish, mehnat shart-sharoitlarini yaratib berish, qishloq joylarida xotin-qizlarni ish bilan ta`minlash , yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka jalb etish kabi qo`shma loyihalarni amalga oshirmoqda.Bu islohotlar bilan xalq dardi eshitilmoqda,xalq qo`llab-quvvatlanmoqda.

“Yuksalish “ xalq harakati Davlat dasturi amalga oshirilishining borishini tizimli monitoring qilish , uni sifatlari va o`z vaqtida bajarish uchun qo`shimcha chora va tadbirlar ko`rish bo`yicha erkin tavsiyalar berish huquqiga ega.Barcha davlat organlari bu tashkilotning so`rovlarini ,talab va takliflarini eshitishi ,bajarishi Davlat tomonidan belgilab qo`yilgan.”Yuksalish “ umummiliy harakati nodavlat notijorat tashkilot sifatida uning hududiy bo`linmalar faoliyatini tashkil etish chora –tadbirlari to`g`risida hukumat qarori ham qabul qilindi. Bu qarorga ko`ra ,davlat boshqaruv organlari ,hokimliklar o`z faoliyatini “Yuksalish” harakatinining mustaqilligi va uning faoliyatiga aralashmaslik tamoyillariga qat`iy rioya qilgan holda o`zaro hamkorlikda amalga oshiradi.Bu tashkilot bir necha yillardan beri o`z faoliyati davomida bir qancha ko`zga ko`rinarli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, 2019-yildan buyon O`zbekistonning 40 yoshgacha bo`lgan istiqbolli yosh kadrlar reytingini e`lon qilib kelmoqda.”Yuksalish “ umummiliy harakati ijtimoiy va iqtisodiy tashabbuslar instituti bilan hamkorlikda davlat idoralalaridagi Top-40 istiqbolli rahbarlar ro`yxati shakllantirildi, unga 26 yoshdan 40 yoshgacha bo`lgan yetuk saviyali kadrlar jalb qilindi.Bundan tashqari “Yuksalish “ umummiliy harakati davlat tuzilmalari, muassasalari hamda yirik jamoat tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan ayollarning Top-35 talik ro`yxati tuzildi.

“Yuksalish “ harakati raisi maqomi, tibbiy va transport ta`minoti shart-sharoitlariga ko`ra vazirga tenglashtiriladi. Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizda tashkil etiladigan har bir

tashkilot O`zbekiston kelajagi ,yurt ravnaqi ,gullab-yashnashi uchun xizmat qilmoqda. Barqarorlik,tashabbuskorlik,birdamlik ,tinchlik va taraqqiyot bunday tashkilotlarning bosh shiori bo`lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi .13.02.2019-yil. 124-sonli qarori: "Yuksalish " umummilliy harakati ...to`g`risidagi.
- 2.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Khudayar Khan's rule of kokand Khanate." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 182-185.
- 3.Mamlakat, Qodirova, and Mannonov Yorqin. "BOZOR SAMADOV-XALQ QAHRAMONI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 696-698.
- 4.Safarov, Akmal, and Mamlakat Qodirova. "PAXTA YAKKAHOKIMLIGI DAVRIDA XOTIN-QIZLARNING QISHLOQ XO 'JALIGIDAGI O 'RNI (QASHQADARYO MISOLIDA)." E Conference Zone. 2022.
- 5.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Issues of the Ethnogenesis of the Uzbek People in Ethnographic Studies of Uzbekistan During the Years of Independence." Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 7 (2022): 116-118.
- 6.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Development of community livestock during the years of independence on the example of kashkadare and surkhandare." Academicia Globe: Inderscience Research 3.04 (2022): 455-457
- 7.Mannonov, Yorqin, and Mamlakat Qodirova. "LAG'MON QISHLOG'I TARIXI." Scientific progress 3.3 (2022): 876-880.
- 8.Davronbek, Normurodov, and Qodirova Mamlakat. "Abu nasr inb Muhammad Farobiy." Ta'lim fidoyilari 5.9 (2022): 496-499.
- 9.Muminovna, Kodirova Country. "HISTORY OF CREATION AND DEVELOPMENT OF PUBLIC ORGANIZATIONS IN UZBEKISTAN." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.12 (2022): 967-969.
- 10.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Why mahatma Gandhi changed the world forever." Academicia Globe: Inderscience Research 3.06 (2022): 361-367.